



OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLAR HAMDA MAJBURIYATLAR HISOBINING TASHKIL ETILISHI

PhD Suyunov Jaloliddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-4689-162X

suyunov02021992@gmail.com

O'ktamov Nozimbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-0908-5846

nozimbekoktamov567gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi masalalari o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi budget hisobining 2-sonli BHS talablari asosida to'lov-kontrakt tushumlari, talabalar bilan hisob-kitoblar, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari hamda majburiyatlar hisobining amaldagi tartibi tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalarida bank komission to'lovlari bilan bog'liq moliyaviy yo'qotishlar, billing va UzASBO tizimlaridagi ma'lumotlar nomuvofiqligi kabi amaliy muammolar aniqlangan. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida bank komissiyalarini qoplash mexanizmini takomillashtirish, yagona to'lov platformasini yaratish, axborot tizimlarini integratsiyalash hamda ichki nazorat va audit tizimini kuchaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy aktivlar, moliyaviy majburiyatlar, to'lov-kontrakt, debitorlik qarzdorligi, kreditorlik qarzdorligi, budget hisobi, UzASBO, billing tizimi, oliy ta'lim.

ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЁТА ФИНАНСОВЫХ АКТИВОВ И ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

PhD Суюнов Джалолиддин

Ташкентский государственный экономический университет

Уктамов Нозимбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы отражения финансовых активов и финансовых обязательств в бухгалтерском учёте в высших образовательных учреждениях. На основе требований Бюджетного стандарта бухгалтерского учёта №2 Республики Узбекистан проанализирован действующий порядок учёта поступлений по оплате за обучение на контрактной основе, расчётов со студентами, дебиторской и кредиторской задолженности, а также обязательств. В процессе исследования выявлены практические проблемы, связанные с финансовыми потерями из-за банковских комиссионных платежей в высших образовательных учреждениях, а также несоответствия данных в системах биллинга и UzASBO. В целях устранения указанных проблем разработаны предложения по совершенствованию механизма покрытия банковских комиссий, созданию единой платёжной платформы, интеграции информационных систем, а также усилению системы внутреннего контроля и аудита.

Ключевые слова: финансовые активы, финансовые обязательства, оплата за обучение на контрактной основе, дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, бюджетный учёт, UzASBO, биллинговая система, высшее образование.

ORGANIZATION OF FINANCIAL ASSETS AND LIABILITIES ACCOUNTING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

PhD **Suyunov Jaloliddin**

Tashkent State University of Economics

O'ktamov Nozimbek

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines the issues of accounting for financial assets and financial liabilities in higher education institutions. Based on the requirements of the Budget Accounting Standard No-2 of the Republic of Uzbekistan, the current procedures for accounting tuition fee revenues, settlements with students, receivables and payables, as well as financial obligations are analyzed. The study identifies practical problems faced by higher education institutions, including financial losses related to bank commission fees and inconsistencies in data between the billing and UzASBO systems. In order to address these issues, proposals have been developed to improve the mechanism for covering bank commissions, establish a unified payment platform, integrate information systems, and strengthen internal control and audit mechanisms.*

Keywords: *financial assets, financial liabilities, tuition fees, receivables, payables, budget accounting, UzASBO, billing system, higher education.*

Kirish.

Bugungi kunda oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligining kengayishi hamda budjetdan tashqari mablag'lar ulushining ortib borishi buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Xususan, to'lov-kontrakt mablag'lari, talabalar turar joylari to'lovlari, rivojlantirish jamg'armasi tushumlari kabi moliyaviy aktivlar hamda ular bilan bog'liq moliyaviy majburiyatlarning to'g'ri va haqqoniy hisobini yuritish oliy ta'lim tashkilotlari moliyaviy faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standartlari, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda tegishli vazirlik va idoralarning normativ ko'rsatmalariga asoslanadi. Biroq amaliyotda to'lov-kontrakt tushumlari, talabalar bilan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarini shakllantirish, bank komission to'lovlarining moliyaviy natijalarga ta'siri, shuningdek, axborot tizimlari o'rtasidagi nomutanosibliklar bilan bog'liq qator muammolar mavjudligi kuzatilmoqda. Ushbu holatlar moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu munosabat bilan oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishining amaldagi tartibini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada oliy ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobi, talabalar bilan hisob-kitoblar, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarining shakllanishi hamda moliyaviy majburiyatlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi masalalari atroflicha o'rganilib, amaliy misollar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida asosiy moliyaviy aktivlarni to'lov-kontrakt, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari (talabalar turar joylari, ijara xizmati hamda boshqa) tashkil etadi. To'lov-kontrakt hamda talabalar turar joylari mablag'lari hisobi O'zbekiston Respublikasi Oliy

va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012-yil 28-dekabrda "Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 508-son buyrug'i, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustda "Oliy ta'lim muassasalari talabalarini turarjoy bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 376-son qarori, xarajatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 20-avgustda "Budjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 65-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (2-sonli BHS) (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 20-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3078) hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 17-dekabrda "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 105-sonli buyrug'i asosida tartibga solinadi.

Moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi:

O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti 2-sonli BHSga asosan 102 409 "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar" subschyotida budjet tashkilotlari tomonidan o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar hisobga olinadi.

O'qitishning to'lov kontrakt shaklidan tushumlar hisobda 102 409 "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar" subschyotning debitida va 153 600 "Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor qarzlari" subschyotining kreditida aks ettiriladi. Mazkur mablag'larning ishlatilishi hisob-kitoblar va boshqa tegishli subschyotlarning debitiga va 102 409 "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar" subschyotining kreditiga yoziladi.

Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan pul mablag'larining analitik hisobi talabalarining kurslari (bosqichlari), fakultetlar (dekanatlar, o'qish yo'nalishlari), guruhlar, shuningdek, talabalar (famiyasi, ismi, otasining ismi) bo'yicha alohida holda yuritiladi.

153 600 "Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor qarzlari" subschyotida ta'lim muassasalarida talabalar bilan to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha va o'quv jarayonida yuzaga keladigan debitor qarzlari hisobi olib boriladi.

Ta'lim muassasalari tomonidan to'lov-kontrakt mablag'larining hisoblanishi 153 600 "Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor qarzlari" subschyotning debitida va 520 150 "Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha hisoblangan daromadlar" subschyotining kreditida aks ettiriladi. To'lov-kontrakt mablag'larining kelib tushishi 153 600 "Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor qarzlari" subschyotning kreditida va 102 409 "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar" subschyotida aks ettiriladi.

Analitik hisob har bir talaba bo'yicha alohida holda tashkil qilinadi.

343 600 "Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa kreditor qarzlari" subschyotida ta'lim muassasalarida talabalar bilan to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha va o'quv jarayonida yuzaga keladigan kreditor qarzlari hisobga olinadi.

Kreditorlik qarzdorlikning yuzaga kelishi 153 600 "Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor qarzlari" subschyotning debitida hamda 343 600 "Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa kreditor qarzlari" subschyotida kreditida aks ettiriladi.

Ta'lim muassasalarida talabalar bilan to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha va o'quv jarayonida yuzaga kelgan kreditor qarzlari kelgusi hisob-kitoblarda inobatga olinadi yoki ushbu kreditor qarzlari yakuniy hisob-kitoblardan so'ng yuzaga kelgan taqdirda belgilangan tartibda talabaga qaytariladi.

Jumladan, talabalarga ortiqcha mablag' (kreditorlik qarzdorligining) qaytarilishi 343 600 "Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa kreditor qarzlari" subschyotining debitida

hamda 102 409 "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar" subschyoti kreditida aks ettiriladi.

520 150 "Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha hisoblangan daromadlar" subschyotida ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushadigan daromadlarning hisoblanishi aks ettiriladi.

983 000 "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar" subschyotida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha moliyaviy natijalari aks ettiriladi. Subschyot kreditida yil mobaynida hisoblangan ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha daromadlarning hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi, bunda, 520 150 "Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha hisoblangan daromadlar" subschyoti debitlanadi.

Talabalar turar joylari bo'yicha mablag'lar hisobi ham aynan shu tartibda tashkil etiladi. Faqat 102 409 "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar" subschyoti o'rniga 102 401 "Budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi" subschyotidan foydalaniladi.

Jumladan, 102 401 "Budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi" subschyotida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha daromadlar, tushumlari va ushbu subschyotlardan amalga oshiriladigan xarajatlar hisobi yuritiladi.

Moliyaviy majburiyatlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi:

Oliy ta'lim tashkilotlarida asosiy moliyaviy majburiyatlarni I guruh (ish haqi, stipendiya to'lovlari va boshqa), II guruh (ijtimoiy to'lov) hamda IV guruh (boshqa xarajatlar) ga xarajatlar tashkil etadi. Majburiyatlar hisobi ham aynan O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti 2-sonli BHSga asosan tartibga solinadi.

343 400 "Budget tashkilotlarining xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha kreditor qarzlari" subschyotida tashkilotning xodimlari bilan ish haqining barcha turlari, mukofotlar va boshqa mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblar hisobga olinadi.

Xodimlarning hisoblangan ish haqlaridan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ushlangan majburiy badallar summolari 343 400 "Budget tashkilotlarining xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha kreditor qarzlari" subschyotning debitida va 342 400 "Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi bilan sug'urta badali to'lovi bo'yicha kreditor qarzlari" subschyotning kreditida aks ettiriladi. O'tkazib berilgan badallar summolari 342 400 "Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi bilan sug'urta badali to'lovi bo'yicha kreditor qarzlari" subschyot debitida va tegishli pul mablag'larini hisobga oluvchi subschyotlar kreditida aks ettiriladi.

Xodimlarga hisoblab yozilgan ish haqi, mukofotlar, turli moddiy yordamlar va boshqa to'lovlar summolari 343 400 "Budget tashkilotlarining xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha kreditor qarzlari" subschyotning kreditiga va to'lanadigan mablag' turini hisobga olgan holda haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 730 000 "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar" schyoti yoki 741 000 "Budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar" subschyotlarining debitiga yoziladi. To'langan ish haqi va boshqa to'lovlar summolari va tegishli tartibda ushlab qolingan summalar 343 400 "Budget tashkilotlarining xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha kreditor qarzlari" subschyotning debitiga hamda boshqa tegishli subschyotlarning kreditiga yoziladi.

Analitik hisob tashkilotning har bir xodimi bo'yicha alohida holda yuritiladi.

343 500 "Budget tashkilotlarining stipendiya oluvchilar bilan kreditor qarzlari" subschyotida oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarining studentlari, stajyor-

tadqiqotchi-izlanuvchilar hamda kurs tinglovchilari va boshqalar bilan stipendiyalar bo'yicha olib boriladigan hisob-kitoblar hisobga olinadi.

Stipendiyalarni hisoblab yozish va to'lash hisob-kitob to'lov qaydnomalarida oyiga bir marta buyruqlar asosida amalga oshiriladi. Hisoblab yozilgan stipendiyalarning summolari 343 500 "Budjet tashkilotlarining stipendiya oluvchilar bilan kreditor qarzlari" subschyotining kreditiga yoziladi, ushbu subschyotning debitiga esa ushlab qolingani summalar, berilgan va muddatida olinmagan stipendiyalarning summolari yoziladi. Analitik hisob o'quv muassasasining har bir stipendiya oluvchisi bo'yicha alohida holda yuritiladi.

341 100 "Budjet tashkilotlarining mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha kreditor qarzlari" subschyoti mahsulot yetkazib beruvchilar bilan yetkazib berilgan moddiy va nomoddiy qimmatliklar, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga xarid qilinadigan qurilish materiallari, konstruksiyalar va detallar, o'rnatish uchun jihozlar, yetkazib berilgan boshqa tovar-moddiy qimmatliklar qiymati va shu kabilar, pudratchilar bilan ularga qurilish va montaj uchun berilgan konstruksiyalar va detallar, bajarilgan qurilish-montaj ishlari uchun budjet tashkilotlarining kreditor qarzlari hisobi olib boriladi.

Mahsulot yetkazib beruvchilardan omborga kelib tushgan moddiy qimmatliklar summasiga moddiy qimmatliklarni hisobga oluvchi tegishli subschyotlar debitlanadi, bunda 341 100 "Budjet tashkilotlarining mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha kreditor qarzlari" subschyoti kreditlanadi.

342 100 "Budjet tashkilotlarining budjetga to'lovlar bo'yicha kreditor qarzlari" subschyotida budjet tashkilotlarining quyidagilar bo'yicha qilinadigan hisob-kitoblar hisobi yuritiladi: ish haqi va boshqa to'lovlardan ushlab qolingani soliqlar, aybdor shaxs hisobiga olib borilgan va budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan kamomadlar summolari, moddiy qimmatliklarni sotishdan tushgan va qonunchilik hujjatlariga ko'ra budjet daromadiga o'tkazilishi kerak bo'lgan summalar va boshqa budjet bilan hisob-kitoblar.

Budjet bilan hisob-kitoblar bo'yicha vujudga kelgan hisoblangan summalar 342 100 "Budjet tashkilotlarining budjetga to'lovlar bo'yicha kreditor qarzlari" subschyotning kreditiga yoziladi, bunda boshqa tegishli schyotlarning subschyotlari debitlanadi. Tegishli summalar budjet daromadiga o'tkazilganda 342 100 "Budjet tashkilotlarining budjetga to'lovlar bo'yicha kreditor qarzlari" subschyotning debitiga yoziladi, bunda, pul mablag'larini hisobga oluvchi subschyotlar kreditlanadi.

Majburiyatlarning to'lab berilishi odatda tegishli kreditorlik subchyotlarini debitlash hamda (budjetdan tashqari mablag'lar) 102 409 "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar", 102 401 "Budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi" subschyotlari agar kreditorlik qarzdorlik budjet mablag'laridan to'lansa (asosan stipendiya to'lovlar) 503 000 "Budjetdan moliyalashtirish" subschyotini kreditlash orqali amalga oshiriladi.

Tashkilotlar tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini o'zga tashkilotlarga ijaraga berishda o'zaro tuzilgan ijara shartnomasida belgilangan summaning har oyga (chorakka) to'g'ri keladigan ulushi miqdoriga (har oyda yoki chorakda) 151 900 "Budjet tashkilotlarining boshqa turdagi hisob-kitoblardan debitor qarzlari" subschyotining debiti va 520 310 "Budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha hisoblangan daromadlari" yoki 520 320 "Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha hisoblangan daromadlari" subschyotining krediti bo'yicha buxgalteriya o'tkazmasi beriladi. Ijara shartnomasiga asosan kelib tushgan mablag'larga 102 401 "Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi" yoki 102 402 "Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi" subschyotining debiti va 151 900 "Budjet tashkilotlarining boshqa turdagi hisob-kitoblardan debitor qarzlari" subschyotining krediti bo'yicha yozuv amalga oshiriladi.

Quyida (1-jadval) yuqoridagi amaliyotlar bo'yicha tegishli asosiy ikki yoqlama yozuvlarning rasmiylashtirilishi keltiriladi:

1-jadval

Moliyaviy aktivlar va majburiyatlar bo'yicha asosiy buxgalteriya ikki yoqlama yozuvlar jadvali

T/r	Debit	Kredit	Xarajat moddasi	Ikki yoqlama yozuv mazmuni
Moliyaviy aktivlar bo'yicha				
1.	153 600	520 150	-	To'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha daromad hisoblandi, debitorlik qardorligi yuzaga keldi. (Talabaga shartnoma berildi)
2.	102 409	153 600	-	Debitorlik qarzdorligi kelib tushdi.
3.	520 150	153 600	-	Talaba tomonidan amalga oshirigan to'lov bo'yicha bank xizmat (0.3 foiz) daromaddan qaytarildi.
4.	102 401	153 600	-	Talaba tomonidan debitorlik qarzdorligi (TTJ bo'yicha) to'landi.
5.	151 900	520 320	-	Asosiy vositalar ijara shartnomasi asosida ijaraga berildi (debitorlik qarzdorligi hisoblandi)
6.	102 401	151 900	-	Ijara bo'yicha debitorlik qarzdorligi kelib tushdi.
7.	151 100	102 409 102 401 503 000	42 00 000 (tegishliligi bo'yicha)	Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'nak to'landi.
8.	102 409 102 401	503 000	-	Xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'larning tashkilotning budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga o'tkazilishi.
9.	153 400	102 409 102 401 503 000	41 11 000 (tegishliligi bo'yicha)	Ishchi xodimlarga ish haqi bo'yicha avans to'landi.
10.	153 500	102 409 102 401 503 000	48 21 400	Talabalarga stipendiya to'lovlari bo'yicha avans to'landi.
11.	700 000 (tegishliligi bo'yicha)	231 000 (tegishliligi bo'yicha)	43 00 000 (tegishliligi bo'yicha)	Asosiy vositalarga eskirish hisoblandi.
12.	121 100	102 400 (tegishliligi bo'yicha)	49 11 000	Tijorat banklariga depozit mablag'lari joylashtirildi.
13.	151 900	520 000 (tegishliligi bo'yicha)	-	Depozit mablag'lari bo'yicha daromad hisoblandi.
14.	102 400 (tegishliligi bo'yicha)	151 900	-	Depozit mablag'lari bo'yicha debitorlik qarzdorligi kelib tushdi.
Majburiyatlar bo'yicha				
15.	153 600	343 600	-	Talabaga nisbatan kreditorlik qarzdorligi yuzaga keldi (ortiqcha to'lov)
16.	343 600	153 600	-	To'lov-kontrakt bo'yicha kreditorlik qarzdorligi debitorlik qarzdorligi uchun hisobga olindi.
17.	343 600	102 409	48 21 190	Talabaga nisbatan kreditorlik qarzdorligi to'lab berildi (ortiqcha to'lov qaytarildi).
18.	170 000 240 000	341 000 (tegishliligi bo'yicha)	42 00 000 (tegishliligi bo'yicha)	Mol yetkazib beruvchi hamda pudratchilardan mahsulot (kommunal to'lovlar bilan birgalikda)lar qabul qilindi (kreditorlik qarzdorligi yuzaga keldi).
19.	700 000 (tegishliligi bo'yicha)	343 400	41 11 000 (tegishliligi bo'yicha)	Xodimlarga ish haqi hisoblandi.
20.	343 400	342 100	41 21 000	Ish haqi bo'yicha daromad solig'i hisoblandi.
21.	700 000 (tegishliligi bo'yicha)	342 200	41 21 100	Ish haqi bo'yicha ijtimoiy solig'i hisoblandi.
22.	343 400	342 300	41 11 100	Ish haqi bo'yicha shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varag'iga to'lov hisoblandi.
23.	700 000 (tegishliligi bo'yicha)	343 500	48 21 400	Talabalarga stipendiya to'lovlari hisoblandi.
24.	343 400	153 400	-	Ish haqi bo'yicha bo'nak hisobga olindi.
25.	343 500	153 500	-	Stipendiya to'lovi bo'yicha bo'nak hisobga olindi.
26.	341 000 (tegishliligi bo'yicha)	151 100 (tegishliligi bo'yicha)	-	Mol yetkazib beruvchi hamda pudratchilarga to'langan bo'nak hisobga olindi.
27.	700 000 (tegishliligi bo'yicha)	341 900	42 40 000 (tegishliligi bo'yicha)	Operativ ijara bo'yicha to'lov hisoblandi.
28.	700 000 (tegishliligi bo'yicha)	341 300	41 21 200	Sug'urta to'lovlari bo'yicha to'lov hisoblandi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishini o'rganish hamda amaliy muammolarni aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy va amaliy usullar uyg'unlashtirilgan holda qo'llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini O'zbekiston Respublikasi budget hisobining 2-sonli BHS standarti, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, buxgalteriya hisobi bo'yicha ilmiy adabiyotlar hamda soha mutaxassislarining ilmiy ishlari tashkil etdi. Normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish orqali oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobining amaldagi tartibi huquqiy jihatdan tahlil qilindi.

Amaliy tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari, UzASBO va billing tizimlari ma'lumotlari, shuningdek, to'lov-kontrakt tushumlari bo'yicha buxgalteriya registrlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarini shakllantirishdagi xatoliklar, bank komission to'lovlarining moliyaviy natijalarga ta'siri hamda axborot tizimlari integratsiyasi bilan bog'liq muammolar aniqlashtirildi.

Tadqiqot yakunida olingan natijalar umumlashtirilib, amaliy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Taklif etilgan chora-tadbirlar oliy ta'lim tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda hisob ma'lumotlarining aniqligi va shaffofligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetning 2024-moliya yili yakuniga ko'ra 1-shakl (balans) moliyaviy hisoboti (2-jadval) tahlili asosida ko'rib chiqildi.

Keltirilgan 2-jadval ma'lumotlari asosida quyidagilar izohlanadi:

Joriy aktivlar yuzasidan:

Pul mablag'lari 2023-yilda 28 081.35 mln so'm bo'lsa, 2024-yilda 30 676.96 mln so'mga yetgan. Bu 2 595.61 mln so'mga yoki 9.24 % ga oshgan. Shuningdek, joriy aktivlar tarkibidagi ulushi ham 8.23 % dan 8.78 % gacha o'sib, pul mablag'lari barqaror va o'sish tendensiyasida ekanligini ko'rsatadi.

Moliyaviy mablag'lar bo'yicha joriy debitor qarzlar (depozitlar) 68 300 mln so'mdan 60 600 mln so'mga kamayib, 7 700 mln so'm yoki 11.27 % ga tushgan. Bu tashkilotning qisqa muddatli depozitlar orqali mablag'larni kamaytirgani yoki ularni ishlatganini ko'rsatadi. Ulush bo'yicha ham 20.01 % dan 17.34 % gacha pasaygan.

Debitor qarzlar 14 655.83 mln so'mdan 42 298.76 mln so'mga ko'tarilgan, ya'ni 27 642.93 mln so'm yoki 188.61 % ga oshgan. Bu joriy davrda tashkilotning talabalar bilan qarzdorligi (32 719.52 mln so'm) keskin oshganini bildiradi. Shuningdek, joriy aktivlar tarkibidagi ulushi 4.29 % dan 12.10 % gacha ko'tarilgan.

Tovar-moddiy zaxiralar va ularga xarajatlar 1 422.71 mln so'mdan 3 974.58 mln so'mga oshib, 2 551.87 mln so'm yoki 179.37 % ga ko'paygan. Bu esa tashkilotning moddiy resurslarini oshirganini, ehtimol, xaridlar ko'payganini yoki ishlab chiqarish ehtiyojlari ortganini bildiradi.

Joriy aktivlar bo'yicha xulosa qilinganda pul mablag'lari o'sish ko'rsatgan, lekin depozitlar kamaygan, asosiy o'sish debitor qarzlar va tovar-moddiy zaxiralarda kuzatiladi. Bu tashkilotning qisqa muddatli mablag'larni ishlatishi va faoliyatni kengaytirishi bilan izohlanadi.

Uzoq muddatli aktivlar yuzasidan:

Asosiy vositalar 228 841.99 mln so'mdan 211 882.35 mln so'mga kamayib, 16 959.64 mln so'm yoki 7.41 % ga tushgan. Uzoq muddatli aktivlarning jami tarkibidagi ulushi ham 67.05 % dan 60.64 % gacha pasaygan. Bu esa asosiy vositalardan foydalanish yoki ularning amortizatsiyasi natijasida qiymatining kamayganini ko'rsatadi. Uzoq muddatli aktivlar

tarkibida asosiy vositalar kamaygan, ammo ular barqaror asosiy aktiv sifatida qolmoqda. Bu tashkilotning eskirgan vositalarni hisobdan chiqartirgani bilan izohlanadi.

Jami aktivlar 341 301.88 mln soʻmdan 349 432.65 mln soʻmga oshib, 8 130.77 mln soʻmga yoki 2.38 % ga oʻsdi. Bu oʻsish joriy aktivlar va talabalar bilan debitor qarzlari hisobiga yuzaga kelganligini koʻrsatadi.

Majburiyatlar yuzasidan:

Joriy majburiyatlar 11 244.08 mln soʻmdan 8 602.75 mln soʻmga tushgan, yaʼni 2 641.33 mln soʻm yoki 23.5 % ga kamaygan (talabalar bilan 3 977.05 mln soʻmni tashkil etadi). Bu tashkilotning qisqa muddatli qarzlari kamaytirgani hamda oldingi majburiyatlarni toʻlagani bilan bogʻliq.

Uzoq muddatli majburiyatlar nolga teng, yaʼni uzoq muddatli qarzlari yoʻq. Majburiyatlar kamaygan, bu esa tashkilotning moliyaviy barqarorligini yaxshilaganini koʻrsatadi.

Sof aktivlar va kapital yuzasidan:

Sof aktivlar 330 057.81 mln soʻmdan 340 829.91 mln soʻmga oshib, 10 772 mln soʻm yoki 3.26 % ga oʻsdi. Bu jami passivlar bilan muvofiqlashtirilgan, yaʼni tashkilotning sof aktivlari oshgan va barqaror moliyaviy pozitsiyada ekanligini koʻrsatadi.

2-jadval

“Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti”ning buxgalteriya balansi tahlili

Mablagʻlarning tarkibi	2023-yil		2024-yil		Oʻzgarishi (+;-)		
	Summa, mln soʻm	Salmogʻi, %	Summa, mln soʻm	Salmogʻi, %	Summa, mln soʻm	Salmogʻi, %	2024-yilga nisbatan oʻsishi
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6/2*100
1. Joriy aktivlar:							
<i>pul mablagʻlari</i>	28 081.35	8.23	30 676.96	8.78	2 595.61	0.55	9.24
<i>moliyaviy mablagʻlar boʻyicha joriy debitor qarzlari (depozit)</i>	68 300	20.01	60 600	17.34	-7 700	-2.67	-11.27
<i>debitor qarzlari</i>	14 655.83	4.29	42 298.76	12.10	27 642.93	7.81	188.61
<i>tovar-moddiy zaxiralar va ularga xarajatlar</i>	1,422.71	0.42	3,974.58	1.14	2,551.87	0.72	179.37
2. Uzoq muddatli aktivlar:							
<i>asosiy vositalar</i>	228,841.99	67.05	211,882.35	60.64	-16,959.64	-6.41	-7.41
Jami aktivlar:	341 301.88	100	349 432.65	100	8 130.77	0	2.38
3. Majburiyatlar							
<i>joriy majburiyatlar</i>	11 244.08	3.29	8 602.75	2.46	-2 641.33	-0.83	-23.5
<i>uzoq muddatli majburiyatlar</i>	0	0	0	0	0	0	0
4. Sof aktivlar / kapital	330 057.81	96.71	340 829.91	97.54	10 772	0.83	3.26
Jami passivlar:	341 301.88	100	349 432.65	100	8 130.77	0	2.38

Yuzaga kelayotgan muammolar boʻyicha:

Hozirgi vaqtda fuqarolarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat xizmati uchun to'lovlar bo'yicha ortiqcha komission to'lovlar xizmat tannarxiga kiritilishi orqali undirilmasligi belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-martdagi PQ-88-sonli qarorining 1-bandi 3-xatboshisida, aholi tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda vositachilik haqi (yig'imglar) miqdori to'lov summasining bir foizigacha, biroq umumiy summasi Markaziy bank tomonidan belgilangan chegaraviy miqdordan ortiq bo'lmasligi belgilab berilgan. Mazkur hujjatga asosan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan vositachilik haqi miqdori budjet tashkilotlariga to'lovlarda 0.3 foiz etib belgilangan.

Statistika uchun birgina O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida talabalarning to'lov-kontrakt, talabalar turar joylari to'lovlari bo'yicha 2024-yil davomida 147.46 mln so'm hamda 2025-yil davomida 202.11 mln so'm bank xizmati uchun to'lov hisoblangan. To'lov-kontrakt miqdorlari aksariyat oliy ta'lim muassasalari uchun vazirlik tomonidan belgilanishini hisobga olasak, o'z navbatida bu ham oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlarning kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Oliy ta'lim tashkilotlarda talabalar bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari billing hamda UzASBO tizimlarida hisobga olinadi. Tizimlarda ma'lumotlarning real vaqtda kiritilmasligi, tahrirlash imkoniyatining cheklanganligi yoki tizimlar o'rtasida nomutanosibligi (farq yuzaga kelishi) bevosita buxgalteriya hisobi prinsiplari, ya'ni, daromadlarning sun'iy oshirilishiga olib kelmoqda.

Xulosa va takliflar.

Mavjud muammolarga berilayotgan takliflar:

Bank komission to'lovlarni budjet hisobidan qoplash mexanizmini joriy etish. Oliy ta'lim tashkilotlari ijtimoiy yo'naltirilgan muassasalar ekanligini hisobga olib, talabalardan undiriladigan to'lovlar bo'yicha bank komissiyalarini davlat budjeti yoki tegishli vazirlik markazlashgan mablag'lari hisobidan qoplash tartibini belgilash maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim tashkilotlari uchun maxsus imtiyozli ta'riflarni belgilash. Markaziy bank va tijorat banklari bilan kelishilgan holda davlat oliy ta'lim muassasalari uchun to'lovlarni qabul qilishda komission to'lov stavkasini 0 foizgacha kamaytirish yoki qat'iy belgilangan minimal summada (fixed fee) o'rnatish taklif etiladi.

Ichki to'lov tizimlarini rivojlantirish. Vazirlik darajasida yagona elektron to'lov platformasini yaratish va talabalarga to'lovlarni bevosita oliy ta'lim tashkilotining shaxsiy hisob raqamiga komissiyasiz o'tkazish imkoniyatini kengaytirish lozim.

Kontrakt to'lovlari tarkibida komissiya xarajatlarini alohida qoplash. Agar komissiya xarajatlarini to'liq bekor qilish imkoniyati bo'lmasa, kontrakt to'lovlari smetasini shakllantirishda ushbu xarajatlarni normativ tartibda inobatga olish mexanizmini joriy etish.

Yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish. Talabalar to'lovlari bo'yicha yagona ichki markazlashgan platforma tashkil etilib, barcha hisob-kitob operatsiyalarini platformada ham yuritish.

Ichki nazorat tizimini kuchaytirish. Oliy ta'lim muassasalarida har oy yakunida billing tizimi ma'lumotlari bilan buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarini majburiy solishtirish (reconciliation) tartibini joriy etish.

Ichki audit mexanizmini takomillashtirish. Har chorakda talabalar qarzdorliklari bo'yicha ichki audit o'tkazish orqali daromadlarning sun'iy oshirib ko'rsatilishining oldini olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobida to'g'ri va haqqoniy aks ettirilishi ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mablag'lardan oqilona foydalanish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining 2-sonli BHS talablari asosida oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt

tushumlari, talabalar bilan hisob-kitoblar, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari, shuningdek, moliyaviy majburiyatlar hisobining amaldagi tartibi batafsil tahlil qilindi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, moliyaviy aktivlar hisobi asosan 102 409, 102 402, 151 900, 153 600 kabi subschyotlar orqali yuritilib, har bir talaba bo'yicha analitik hisobni to'g'ri tashkil etish daromadlarning aniqligi va shaffofligini ta'minlaydi. Moliyaviy majburiyatlar bo'yicha esa xodimlar bilan hisob-kitoblar, stipendiya to'lovlari, budjet va budjetdan tashqari fondlar bilan hisob-kitoblar 343 400, 343 500, 342 100, 341 100 kabi subschyotlarda aks ettirilib, majburiyatlarning o'z vaqtida tan olinishi hamda to'lanishi buxgalteriya hisobining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, amaliyotda oliy ta'lim tashkilotlari moliyaviy faoliyatida bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Xususan, bank komission to'lovlarining oliy ta'lim muassasalari daromadlari hisobidan qoplanishi kontrakt mablag'lari qat'iy belgilangan sharoitda tashkilotlarning real daromadlarini kamaytirib yubormoqda. Shuningdek, billing va UzASBO tizimlarida ma'lumotlarning o'z vaqtida kiritilmasligi yoki tahrirlanmasligi natijasida debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari noto'g'ri shakllanishi, daromadlarning sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilishi holatlari kuzatilmoqda.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha takliflar ilgari surildi:

bank komission to'lovlarini budjet mablag'lari hisobidan qoplash mexanizmini joriy etish yoki oliy ta'lim muassasalari uchun imtiyozli ta'riflarni belgilash;

talabalardan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha yagona ichki elektron platformani yaratish va komissiyasiz to'lov tizimini kengaytirish;

ichki nazorat va ichki audit tizimini kuchaytirish, hisob-kitoblarni muntazam solishtirib borish tartibini yo'lga qo'yish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, daromad va majburiyatlarning haqqoniy hisobini ta'minlash, shuningdek, buxgalteriya hisobi tizimining shaffofligi va ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy boshqaruvi yanada takomillashib, ularning iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (so'nggi tahrir). O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (so'nggi tahrir). O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (2-sonli BHS). Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (so'nggi tahrir). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bo'yicha yo'riqnoma. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (n.d.) Budjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash haqidagi 65-sonli buyruq.

O'zbekiston Respublikasi. (yangi tahrir) Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonun.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023). Aholi tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risidagi PQ-88-sonli qaror, 9 mart.

Rasulov, A. va boshqalar (2022). Davlat sektori buxgalteriya hisobi. Toshkent: TDIU nashriyoti.

Mehmonov, S.U. va Ubaydullayev, D.Y. (2013). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (n.d.) UzASBO-2 foydalanuvchi qo'llanmasi va metodik tavsiyalar. Rasmiy portal materiallari.